

ABU MANSUR MOTURIDIY QARASHLARIDA HAQ VA ADOLAT TUSHUNCHASI

Saidakbarov Xalilulloh Saidmuxtor o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
"Islomshunoslik" mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Imom Moturidiyning yuzaga chiqargan fikrlari, masalalarga yondashuv uslublari e'tiboridan yashagan asridan kunimizga qadar bo'lgan muammolarga chiroq tutadigan qarashga ega bo'lgan olimlardan biridir. Imom Moturidiy o'z tafsirida adolat va haq tushunchalariga alohida to'xtalib o'tgan bo'lib uning mohiyati, ta'rifi va ijtimoiy hayotta tutgan o'rnini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Moturidiy, adolat, haq, Ta'vilot al-Qur'on, tenglik, huquq

Adolat tushunchasi inson tabiati bilan uyg'unidir, zero inson fitrati zulmning har turiga qarshi keladi. Adolatning inson tabiati bilan uyg'unligi va inson tabiatining adolatga bo'lgan bog'liqligidan so'z yuritgan Moturidiy Allohning to'g'rilik, hikmat va adolatni aqllar nazarida go'zal, zulm, hikmatsizlik va yolg'onni esa hunik ko'rsatganini¹, adolatni muazzam va qadrli, zulmni esa chirkin va qadrsiz qilib ko'ngillarga joylaganini aytadi².

Moturidiy mavjud, sobit, to'g'ri, haqiqat ma'nolarida kelgan haq kalimasini, "aqlga ko'ra to'g'riga yaqinini olish" va "Alloh rozi bo'lgan hol" shaklida ta'riflaydi va bu ta'rifda haqiqat bilan ilohiy tuzum uyg'unligiga ahamiyat beradi. Ya'ni bu ta'rifda to'g'riga faqat haq soyasida erishilishini ko'rish mumkin³. Ya'ni Imom Moturidiyga ko'ra jamiyat rivojida va ijtimoiy masalalarda eng muhim jihat haqiqat va adolatdir. Darhaqiqat insonlarni bir makonga jamlab ittifoqda yashashlarini ta'minlovchi yagona unsur haq va adolatdir. Chunki bular inson tabiati va fitratiga eng uyg'un bo'lgan jihatlardir. Haqning ko'plik shakli bo'lib, "haqlarni ximoya qiluvchi qonunlar majmui" ma'nosida keluvchi huquq kalimasi, yanada keng ma'noda "shaxs va jamoalarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga soluvchi va jamoat tamonidan qo'llab-quvvatlangan qonunlar majmui" deb ta'riflangan⁴. Huquqning adolat va nizomni ta'minlash vazifasi bor. Shu boisdan shaxslar va jamoalar orasidagi munosabatlar va adolat faqat huquq bilan tartibga solinadi va barchaning haqi huquq tarafidan qo'riqlanadi. Har bir haq huquq tizimiga tayanadi va insonlar huquqqa adolat kutish nazari bilan qaraydilar. Imom Moturidiy huquq va adolat orasidagi yaqin munosabatga e'tibor qaratib shunday deydi: "Hokim qilib tayinlangan kishiga tushgan vazifa adolat, yaxshi niyat va omonat tuyg'usi bilan hukm chiqarishdir"⁵. Huquq tabiat qonunlariga uyg'un bo'lgan holda adolatli bo'ladi. Yana bir huquq tizimining odil

¹ Moturidiy, Kitob at-Tavhid. – B. 346.

² Emine Ögük. Adalet İlkisi, İnsan ve Toplum Üzerindeki Yansımaları: Mâtüridi Örneği. – B. 6. (Dergipark.org.tr. Murojaat etilgan sana: 22.05.23.)

³ Mâtüridi düşünce ve Mâtüridilik literatürü. Tuz: Dr. M.Raşit AKPINAR va bosh. – Istanbul: "Step Ajans Matbaa", 2018. – B.183

⁴ Ibn Manzur, Abul Fazl Jamoliddin Muhammad ibn Muqrim ibn Manzur, Lisanul Arab, Bayrut: "Darul Sadr", 2003, "haq" md.

⁵ Ta'vilot. J. II. – B. 207.

bo'lishi uchun eng kamida inson haqlarini ximoyasi ostiga olgan bo'lishi kerak. Shunday holdagina huquq tushunchasining tamalida adolat borligini aytish mumkin.. Qur'oni karimda ikki yuzdan ortiq oyatta kelgan haq tushunchasi, haqning ahamiyatiga ishora qiladi. Allohning payg'ambarlari vositasida bandalariga yuborgan vahiyi tamalida haqiqat va adolat bordir. Imom Moturidiyga ko'ra haq adolatning o'zi bo'lib adolat haqning haq deya, botilni esa botil deya hukm qilishni talab qiladi. Haq bilan botilni bir-biriga qorishtirib yuborgan, haqni botil, botilni haq deb o'ylagan kishining haqni ushlashi mumkin emas.

Moturidiyga ko'ra adolat ayni zamonda haq bilan botilni bir-biridan ayirgan sifatdir⁶ va bu ayirim uning ahamiyatli vazifaga ega ekanini bildiradi. Zero adolatli shaxs haq bilan botilni bir-biridan ayirish va haq tarafda turish imkoniga ega chiqadi. Haq mavzuyi adolatni zarurat qilgani, haqsizlikni zulm o'laroq tavsiflashi ahamiyatlidir. Chunki inson haqdan uzoqlashgani miqdorda zulmga yaqinlashadi. Bu esa o'z o'rnida ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Zero jamiyatlar zulm va haqsizlik bilan vayron bo'ladi. Qur'oni karimda to'g'riga faqat adolat soyasida erishilishi, haqiqiy adolatning haqqa rioya qilish bilan bo'lishi va adolat Qur'onning nozil bo'lishi g'oyalardan biri ekani ta'kidlanadi. Hadid surasida kelgan "Biz O'z payg'ambarlarimizni hujjat (mo'jiza)lar bilan yubordik va ular bilan birga Kitob hamda odamlar adolatni barpo qilishlari uchun mezon (tarozi) tushirdik" oyatidagi adolatni barpo qiluvchi mezonning hikmat ma'nosida ham kelishi mumkinligiga urg'u bergan Moturidiy, fe'l va so'zlarning chegaralari hikmat bilan bilinishi va hikmat soyasida adolatni muhofaza etilishini ta'kidlaydi.⁷ Bu o'rinda hikmat soyasida adolat, adolatning ta'sisi bilan hikmatga erishilmoqda. Shu sababli adolatli bo'lgan hikmatli, hikmatli bo'lgan adolatlidir⁸.

Insonlar tamonidan qilinadigan adolat bashariy adolatdir va bu adolatning Allohga, insonning o'ziga va boshqa insonlarga nisbatan o'z o'lchovlari bor. Kishining narsalar bilan, insonlarning bir-birlari bilan va davlat bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga solish haq va adolat doirasida bo'ladi. Yer yuzida o'rnatiladigan adolatning mohiyati va chegarasi Alloh tarafidan belgilangan. Alloh taolo bandalariga butun ishlarida va xususan hukm chiqarganlarida adolatli bo'lishlarini buyurgan.⁹ "(Yana) ayting: "Rabbim adolatli bo'lishga buyurgan."¹⁰, "Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur."¹¹, "Darhaqiqat, Alloh omonatni o'z egalariga topshirishingiz va odamlar o'rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizga buyuradi."¹² Yuqoridagi va bunga o'xshash ko'plab oyatlarda adolat faqat musulmonlarga qarshi emas, balki ilm, madaniyat, til, irq, jins va din ayirimi qilmay butun insonlarga, inson bo'lganliklari sababidan ayni darajada va o'lchovda adolatli bo'lish buyurilgan. Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Ey, imon keltirganlar! Adolatda barqaror turib, o'zlaring yoki ota-onalaring va qarindoshlaring zarariga bo'lsa-da, Alloh uchun (to'g'ri) guvohlik beringizlar! U (guvohlik beriluvchi)

⁶ Moturidiy, Kitob at-Tavhid. – B. 365.

⁷ Ta'vilot. J. XIV. – B. 208.

⁸ Emine Ögük. Adalet İlkisi, İnsan ve Toplum Üzerindeki Yansımaları: Mâtüridi Örneği.– B. 8.

⁹ Ta'vilot. J. VIII. – B. 176.

¹⁰ A'rof, 29-oyat.

¹¹ Nahl, 90-oyat.

¹² Niso, 58-oyat.

boy bo'ladimi, kambag'al bo'ladimi, Alloh u ikkisiga yaqinroqdir. Bas, adolatli bo'lishlaringiz uchun havoyi nafsga berilib ketmangizlar! Agar (tillaringizni) bursangizlar yoki (guvohlikdan) bosh tortsangizlar, albatta, Alloh qilayotgan ishlarigizdan xabardordir"¹³. Bu o'rinda adolat haq ustida turish, ifrot va tafrifga berilmay o'rta yo'lni muhofaza etish ma'nosidadir.

Insonlari adolatli bo'lgan jamiyatta ijtimoiy adolat ham yuzaga keladi. Alloh taolo Qur'oni karimda insonlarga O'zining adolatli ekanini eslatib, qiyomat kunida barchaga adolatli bir shaklda hukm qilishini bayon qiladi¹⁴. Payg'ambar (s.a.v)ni ham to'g'ri va odil payg'ambar bo'lishga buyurgan¹⁵. Bu xususiyatlar sababidan Imom Moturidiy Qur'oni karimni "haq va adolatga chaqiruvchi" deb ta'riflaydi¹⁶. Islom tarixining har davri, Payg'ambar (s.a.v)ning, sahobalarning va tobeinlarning hayotlari adolat va unga rioya qilishga oid misollar bilan to'ladir. Bu e'tiboridan musulmon jamiyatlarda atolat mulkning tamali o'laroq qabul qilingan. O'z davrida buyuk ajdodimiz davlat arbobi Amir Temur ham "kuch-adolattadir" deb aytgan edi. Ikkinchi xalifa Hazrati Umar (r.a) adolat sifati bilan tanilgan sahobadir. Adolat musulmon jamiyatlarda ish va munosabatlarda asos o'lchov sifatida o'rin olgan, adolattan ayri havas va istaklarga o'rin berilmay, qarimdoshlik va yaqinlik adolatni chetlab o'tishga yo'l qo'yilmay, boy-kambag'al, kuchli-zayif ayirimi qilinmay har kimga teng muomila qilish asos qilib olingan. Bu jihatni hadislarda ham ko'rish mumkin. Imom Muslimdan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambar alayhissalom shunday deb marhamat qiladilar: «Ey odamlar, albatta, sizdan oldin o'tganlarning halok bo'lishlari ularning ichidan shariflar o'g'rilik qilishsa qo'yib yuborib, zaiflar o'g'rilik qilsa jazoni qoim qilishlari sababidan bo'lgan edi. Allohga qasamki, agar Muhammadning qizi Fotima o'g'rilik qilsa ham albatta qo'lini kesaman»¹⁷.

Adolat tushunchasining ma'nolaridan yana biri tenglikdir. Bu ham jamiyatta huquqning adolattan voz kechilmas prinsipi bo'lgan qonun oldida tenglik asosiga rioya qilishni, boy-kambag'al, erkak-ayol, boshqaruvchi va hodim ayirimi qilmasdan har kim qilgan aybi va jinoyatining jazosini olishi, o'zidan bo'lgan yoki biror yaqinining ziddiga bo'lsa ham to'g'ri guvohlik berishi, bugungi kunda qarimdosh-urug'chilik, irq va nasl-nasabga ahamiyat berish, (haqsiz) imtiyoz berish, tanish-bilishchilik, ishni o'z ahliga topshirmaslik kabi holatlardan, g'azab, gina, nafrat, haddan tashqari sevgi, (boshqacha maqomga) mansublik kabi tuyg'ulardan uzoq turishni talab etadi¹⁸. Adolatga ko'ra jamiyatdagi barcha insonlar qanday mavqega ega ekanliklaridan qat'iy nazar jazo va mukofotta barobar bo'lishlari kerak. Bu ma'noda adolatning mutloq tamsilchisi bo'lgan Alloh taolo shunday deb marhamat qiladi: "Bas, kim (hayoti-dunyodalik paytida) zarra misqolichalik yaxshilik qilsa, (Qiyomat kunida) o'shani

¹³ Niso, 135-oyat.

¹⁴ Yunus, 47-oyat.

¹⁵ A'rof, 29-oyat.

¹⁶ Ta'vilot. J. I. – B. 35.

¹⁷ Emine Ögük. Adalet İlkisi, İnsan ve Toplum Üzerindeki Yansımaları: Mâtüridi Örneği. – B. 12-13.

¹⁸ Mâtüridi düşünce ve Mâtüridilik literatürü. Tuz: Dr. M.Raşit AKPINAR va bosh. – Istanbul: Step Ajans Matbaa, 2018. – B. 186.

ko‘rur. Kim zarra misqolichalik yomonlik qilsa, uni ham ko‘rur!”¹⁹. Imom Moturidiy bu oyatta jazolashda rioya qilinadigan adolatga ishora qilinganini aytadi²⁰.

Adolatli bo‘lish o‘zining yoki biror yaqinining zarariga bo‘lsa ham to‘g‘ri guvohlik berishni talab qiladi. Bu hususni ta’kidlab kelgan oyatlardan biri shudir: “Ey, imon keltirganlar! Adolatda barqaror turib, o‘zlaring yoki ota-onalaring va qarindoshlaring zarariga bo‘lsa-da, Alloh uchun (to‘g‘ri) guvohlik beringizlar! U (guvohlik beriluvchi) boy bo‘ladimi, kambag‘al bo‘ladimi, Alloh u ikkisiga yaqinroqdir. Bas, adolatli bo‘lishlaringiz uchun havoyi nafsga berilib ketmangizlar! Agar (tillaringizni) bursangizlar yoki (guvohlikdan) bosh tortsangizlar, albatta, Alloh qilayotgan ishlaringizdan xabardordir”²¹. Imom Moturidiy bu oyatta har bir ish va har bir so‘zda Alloh uchun to‘g‘ri bo‘lish va to‘g‘ri guvohlik berish kerakligi eslatilganini aytadi. Unga ko‘ra ziddiga gapirishi kerak bo‘lgan kishi istar yaqin, istar uzoq, hatto o‘z ota-otasining ziddiga bo‘lishini bilgan biror mavzu bo‘lsa ham haqiqatni so‘zlab adolatli bo‘lishdan qochmasligi lozim²². Jamiyatda vaqti-vaqti bilan e’toborli shaxsni ayirish, irq va nasabga ahamiyat qaratish, homiy, iltimos, imtiyoz va odamlarni ayirish, ishni o‘z ahliga bermaslik kabi holatlardan keladigan g‘azab, kin, nafrat kabi hislardan uzoq turishning yo‘li teng tutilishi kerak bo‘lganlarga teng muomila qilish va adolat chegarasiga rioya qilib muhofaza qilish bilan hosil bo‘ladi.

Imom Moturidiyga ko‘ra hukumda adolatli bo‘lish faqat hokimlar (ishboshilar, sudyalalar) amal qilishi kerak bo‘lgan prinsip emas. Bu jamiyatda har bir musulmonga tushgan bir mas’uliyat va kishining butun munosabatlarida diqqat qilishi kerak bo‘lgan tamoyildir. Chunki adolatsizlik jamiyatda kin, nafrat, dushmanlik va parokandalik kabi salbiy holatlarni yoyilishiga zamin yaratadi. Bu esa ijtimoiy totuvlik va huzurga zarar beradi. Moturidiyga ko‘ra hukum chiqargan qozi va hokimlarning, hukumdorlarning, guvohlik berganlarning, vakolatli kishilarning odil bo‘lishlari va adolat bilan hukum qilishlari kerak. Bu ham kishi ustida haqi bor bo‘lgan kim bo‘lsa ham haqining barchasini berish ma’nosida keladi. Bu haqlar nimalar ekani hadislarda batafsil o‘rin olgan va Allohning haqi, faqirning haqi, musofir haqi, qo‘shnichilik haqi, birodarlik haqi, er-xotin haqi, qarimdosh haqi, musulmonnin boshqa musulmon ustidagi haqi, mol-mulk tasarruf etish haqi, hayvon haqlari kabi haqlardan so‘z yuritilgan. Kishining diqqat qilishi kerak bo‘lgan munosabatlari Robbisi bilan, o‘zi bilan va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatidir. Kishi odatda bu munosabat to‘rlari bilan o‘ralgandir. Shu boisdan har turli muomilasida bu qoidalarni asos qilib olishi kerak.

Imom Moturidiy jamiyat salomatligi uchun insonlarda ahdga vafo, omonat va ehson tushunchalari yer olishini zarurat deb qaraydi. Chunki unga ko‘ra insonga o‘zining badanidan boshlab mas’ulligiga berilgan barcha narsa omonatdir va omonat bo‘lgan narsada faqat omonat sohibi izn bergan ma’lum o‘lcho‘vda foydalana olib, omonatning hech bir shaklda zoe bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi²³.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek Imom Moturidiyga ko‘ra insonlarni bir makonga jamlab ittifoqda yashashlarini ta’minlovchi yagona unsur haq va adolatdir.

¹⁹ Zalzala, 7,8-oyatlar.

²⁰ Moturidiy, Kitob at-Tavhid. – B. 616.

²¹ Niso, 135-oyat.

²² Ta’vilot. J. IV. – B. 67-68.

²³ Ta’vilot. J. I. – B. 315.

Haqning eng kattasi Allohning bandalari ustidagi haqidir. Kishi Alloh bilan munosabatida Allohga loyiq bo'lgan vasflarni nisbat etishi, U haqida faqat haqiqatni so'ylashi, Unga loyiq bo'lgan shaklda ibodat va toatta bo'lishi lozim. Haq bo'lgan Zot ayni zamonda haqning sohibidir. Shu boisdan Allohning insonlar ustida haqi bordir. Imom Moturidiy shukr etishni bu haqlardan biri ekanini aytadi. Allohga imon keltirish bilan bir qatorda namoz va ro'za kabi ibodatlarini ham bular qatorida ta'kidlanadi. Faqat insonlarning Alloh ustida biror haqi yo'qdir.

Haq va adolatga rioya etish mas'uliyati Allohning haqlaridan boshlab, insonning o'ziga va jamiyatning barcha jabhalariga yoyiladi. Kishining ruh va badanining inson ustidagi haqlari orasida o'ziga zulm qilmaslik, qanoat sohibi bo'lish kabi mas'uliyatlar bordir. Haqni buzish holatlarida kishi eng ko'p o'ziga zulm qilgan bo'ladi. Chunki oyatlarda ham Allohga va insonlarga qarshi haqlarni buzganlar aslida o'zlariga zulm qilganliklari aytiladi²⁴. Kishi ruh va tanasini himoya qilishga mukallafdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adolat va haq ijtimoiy hayotni sog'lom saqlash uchun, odamlar va jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan qoidalarga muvofiq davom ettirishiga imkon beradi. Adolat hech bir jamoa va jamiyatning o'zidan voz kechmaydigan qadriyatdir. Jamiyatlar adolat tamoyilini qaror toptirish orqali kamolotga erishadilar. Zulm va iskanja haddan oshganda dunyoning turli o'lkalarida odamlar nohaq o'ldirilayotgan, yashash huquqining va insoniy qadr-qimmat poymol qilinayotgan dunyoda haq va adolat tamoyillarini ta'kidlash, bularga nisbatan sezuvchanlik yaratish yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

²⁴ Baqara, 165,231-oyatlar.